

## DAVLAT BOSHQARUVIDAGI YANGI ISLOHOTLAR

Nurllayev Mansurbek Atabayevich

Xorazm viloyati

yuridik texnikumi “Xususiy-huquqiy” fanlar kafedrasи mudiri.

Xajiboyev Izzatbek G‘afur o‘g‘li

Xorazm viloyati

yuridik texnikumi 2-bosqich o‘quvchisi.

Ozodova Iroda Hamza qizi

Xorazm viloyati

yuridik texnikumi 2-bosqich o‘quvchisi.

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada mamalakatimizda davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish maqsadida 2022-yil 23-noyabrda qabul qilingan “Kosmik tarmoqni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi prezident qarorining mazmun-mohiyati haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** qaror, davlat kosmik monitoringi, kosmik tarmoq, vazifalar, “O‘zbekkosmos” agentligi, kosmik texnologiyalar.

Davlat har bir sohada o‘z faoliyatini olib borar ekan, mavjud tizimni tartibga solish va takomillashtirish uchun huquqni qo‘llashda muhim hisoblangan normativ-huquqiy hujjatlар qabul qilish orqali amalga oshiradi. Davlat boshqaruvi hamda jamiyat hayotida qabul qilinayotgan qonunlarning o‘rni juda ahamiyatlidir. Har bir soha bir-biriga bog‘liq bo‘lganligi sababli, bir sohada amalga oshirilgan islohotlar boshqa sohaga albatta ta’sir etadi. Buni biz yurtimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan yangiliklar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bu borada zarur qonun hujjatlari ham qabul qilinib, amaliyotga joriy qilinmoqda.

Mamalakatimizda davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish maqsadida 2022-yil 23-noyabrda "Kosmik tarmoqni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga binoan davlat boshqaruvi organlari kosmik suratlar bilan ta’minlanadi. Unda qayd etilishicha, Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi (keyingi o‘rinda – "O‘zbekkosmos" agentligi) O‘zbekistonning kosmik faoliyatini tartibga solish, kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar sohasida yagona davlat siyosati va strategik yo‘nalishlarni belgilash hamda kosmik monitoring, shu jumladan, davlat

kosmik monitoringini amalga oshirish bo'yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Davlat kosmik monitoringini amalga oshirish doirasida "O'zbekkosmos" agentligiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatildi:

- kosmik suratlarni qayta ishlash va tahlil qilish orqali iqtisodiyot sohalarida qonunbuzarlik holatlarini aniqlash;
- davlat kosmik monitoringini amalga oshirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tegishli vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshiriladigan monitoring jarayonlarida kosmik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha takliflarni tayyorlash;
- sohalarda vazirlik va idoralar tomonidan kosmik texnologiyalarni qo'llash darajasini monitoring qilish va ularning joriy etilishini jadallashtirish.

Qarorga binoan "O'zbekkosmos" agentligiga kosmik texnologiyalarni joriy etish tizimini moliyalashtirish uchun xarajatlar bo'yicha takliflarni shakllantirish hamda zaruratga ko'ra xorijiy qarz, grantlar va boshqa mablag'larni jalb etish hamda kosmik tarmoqni rivojlantirish jamg'armasining vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirish hamda ularni taqsimlash huquqi beriladi. Ma'lum qilinishicha, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Kadastr agentligi va "O'zbekkosmos" agentligi bilan birgalikda 2023-yil 1-fevralga qadar davlat kosmik monitoringi o'tkaziladigan sohalarga oid davlat kadastrlari ma'lumotlarini "Elektron hukumat"ning idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i orqali taqdim etish bo'yicha o'zaro integratsiya qilishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, "O'zbekkosmos" agentligi kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va tijoriy kosmik faoliyatni rivojlantirish maqsadida:

- Global sun'iy yo'ldoshli navigatsiya (GNSS) tizimlari operatorlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish;
- Xalqaro astronavtika federatsiyasiga (IAF) a'zo bo'lish;
- xalqaro moliya institutlari, donor tashkilotlar, kompaniyalar va banklar bilan kosmik sohaga xorijiy sarmoya va ilg'or texnologiyalarni jalb etish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish;
- favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda sun'iy yo'ldosh apparatlari orqali yerni masofadan zondlash ma'lumotlarini tezkor qabul qilish maqsadida xorijiy sun'iy yo'ldosh operatorlari bilan kelishuv, memorandum, bitim va shartnomalar tuzish choralarini ko'rishi mumkin.

Qayd etilishicha, Innovatsion rivojlanish vazirligi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda 2023-yil yakuniga qadar qishloq va suv xo'jaligi, ekologiya, telekommunikatsiya, geologiya-qidiruv, kartografiya, gidrometeorologiya, seysmologiya va shaharsozlik sohalarining samaradorligini oshirishda yerni masofadan turib zondlash, yo'ldosh aloqa, navigatsiya tizimlarini qo'llash masalalarining ilmiy va innovasion yechimiga qaratilgan amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini shakllantiradi. Bunda, ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarish

faoliyatiga samarali joriy etish maqsadida tanlov e'lon qilish uchun taqdim etiladigan loyiha mavzulari va ulardan kutilayotgan natijalar "O'zbekkosmos" agentligi bilan kelishiladi.

Bundan tashqari, kosmik monitoring ishlarini amalga oshirish va davlat boshqaruvi organlarini kosmik suratlar bilan ta'minlash, shuningdek, kosmik texnologiyalarni qo'llash orqali ijtimoiy-iqtisodiy, ilm-fan, mudofaa va xavfsizlik sohalarida kosmik faoliyat natijalaridan samarali foydalanish yo'lga qo'yiladi. 2023-yil 1-fevralgacha davlat kosmik monitoringi o'tkaziladigan sohalarga oid davlat kadastrlari ma'lumotlari "Elektron hukumat"ning idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i orqali taqdim etish bo'yicha o'zaro integratsiya qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston hududida foydalanilayotgan, sotish yoki shaxsiy foydalanish uchun olib kiriladigan va ishlab chiqariladigan sun'iy yo'ldosh orqali ishlovchi mobil qurilmalar va terminallarni ro'yxatga olish tartibi ishlab chiqiladi.

Xulosa o'rnida, har qanday normativ-huquqiy hujjat, qaror, qonun qabul qilinar ekan, ular avvalo, jamiyat va davlat manfaatlari, xalq farovonligi va eng muhimi yurt ravnaqi uchun xizmat qilmog'i darkor. Biz fuqarolar davlat hayotida amalga oshirilgan islohotlarga befarq bo'lмаган holda o'z faolligimizni namoyon etishimiz, huquqiy ongimizni, huquqiy madaniyatimizni oshirishimiz zarurdir. Buning uchun qonunchilikda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangiliklardan eng birinchilardan bo'lib xabardor bo'lishimiz va o'zgalarga ham yetkazmog'imiz lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH.Mirziyoyevning 2022-yil 23-noyabrda qabul qilingan "Kosmik tarmoqni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.